# IQTISODIYOTDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHDA MOLIYA BOZORI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**Shaxnoza Qobilova**

Qarshi davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasи o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda iqtisodiyotda kambag'allikka qarshi kurashishda biznesni moliyalashtirishning ko‘plab usullari mavjud. Ular orasida eng zamонави va keng tarqalgan model kraufdanding hisoblanadi. Ushbu model biznesni boshlash uchun mablag‘ yetarli bo‘lmaganlar uchun juda samarali usul bo‘lib, kraufdanding - internet orqali investorlardan mablag‘ yig‘ish, innovatsion g‘oyani moliyalashtirishning zamонави mexanizmi sanaladi. Mazkur maqola “Kraufdanding” konsepsiysi, uni O‘zbekistonda rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish istiqbollarini o‘rganishga qaratilgan. Jamoaviy sa'y-harakatlar orqali kapitalni jalg qilish usuli sifatida kraufdanding ko‘p odamlarning kichik xayriyalar yoki investitsiya kiritishi bilan loyiha yoki korxonani moliyalashtirishga qaratilgan. Shunday qilib, bunday hodisa muqobil moliyaviy mahsulotlarni rivojlantirish uchun keng yo‘l ochadi. Xususan, mamlakatimizda 417,1 mingdan ortiq mikrofirma va kichik biznes faoliyati bilan shug‘ullanayotgan aholi va ularning YAIMda qariyb 56 foiz ulushga ega. Kichik tadbirkorlar soni har 1000 nafar doimiy aholiga 14 taga to‘g‘ri kelgan. O‘zbekistonda kraufdanding modelining rivojlanishi investorlar va tadbirkorlarga har ikki tomonlama katta foyda keltirishi, tadbirkorlik esa, o‘z navbatida, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga, kambag'allik darajasini qisqartishga hissa qo‘sishni kutilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** kraufdanding, kraudinvesting, kambag'allik, qashshoqlik darajasi, iste’mol minimumi, biznes, mikromoliyalashtirish, kredit, venchur, investitsiya.

**Abstract:** In today’s economy, there are many ways to finance a business in the fight against poverty. Among them, the most modern and widespread model is crowdfunding. This model is a very effective method for those who do not have enough funds to start a business, and crowdfunding is a modern mechanism for collecting funds from investors and financing an innovative idea via the Internet. This article is aimed at studying the concept of “Crowdfunding” and the prospects of reducing poverty through its development in Uzbekistan. As a method of raising capital through collective efforts, crowdfunding aims to finance a project or enterprise with small donations or investments from many people. Thus, such an event opens a wide path for the development of alternative financial products. In particular, there are more than 417,100 people engaged in micro-firms and small business activities in our country, and their share in GDP is about 56 percent. The number of small entrepreneurs was 14 per 1,000 permanent residents. The development of the crowdfunding model in Uzbekistan is expected to bring great benefits to both investors and entrepreneurs, and entrepreneurship, in turn, will contribute to the development of the national economy and reduce the level of poverty.

**Key words:** crowding, poverty, poverty level, consumption minimum, business, microfinancing, credit, venture, investment.

**Аннотация:** В современной экономике существует множество способов финансирования бизнеса в борьбе с бедностью. Среди них наиболее современной и распространенной моделью является краудфандинг. Эта модель – очень эффективный метод для тех, у кого недостаточно средств для открытия бизнеса, а краудфандинг – современный механизм сбора средств инвесторов и финансирования инновационной идеи через Интернет. Данная статья направлена на изучение понятия “Краудфандинг” и перспектив сокращения бедности посредством его развития в Узбекистане. Краудфандинг как метод привлечения капитала посредством коллективных усилий направлен на финансирование проекта или предприятия за счет небольших пожертвований или инвестиций множества людей. Таким образом, подобное мероприятие открывает широкий путь для развития альтернативных финансовых продуктов. В частности, в нашей стране микрофирмами и малым бизнесом занимаются более 417,1 тыс. человек, а их доля в ВВП составляет около 56 процентов. Число малых предпринимателей составило 14 на 1000 постоянных жителей. Ожидается, что развитие модели краудфандинга в Узбекистане принесет большую пользу как инвесторам, так и предпринимателям, а предпринимательство, в свою очередь, будет способствовать развитию национальной экономики и снижению уровня бедности.

**Ключевые слова:** краудфандинг, краудинвестинг, бедность, уровень бедности, минимум потребления, бизнес, микрофинансирование, кредит, венчурное инвестирование.



## KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotda kambag' allikni qisqartish, aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlikni rivojlanish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda moliyalashtirish va investitsiyalarning zamonaviy vositalari maydonga kelmoqda. Iqtisodiyotda kambag' allikni qisqartirishda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mablag' yig'ish doimo muammo bo'lib kelgan. Mikromoliyalashtirishning modeli kraufdanding rivojlangan davlatlarda biznesni moliyalashtirishda muammoni oson, arzon, tez yechishning demokratik vositasiga aylandi va, shu bilan birga, kraufdanding modeli moliyalashtirishning ommavylashuviga olib keldi. Kela-jakda butun dunyo bo'ylab mikromoliya tashkilotlari (MMT) faoliyatining kengayishi bilan model ijobjiy va salbiy natijalarga olib kelgan ko'plab o'zgarishlarni boshdan kechira boshladi, bu mikromoliyaning iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida maqsadga muvofiqligi va samaradorligi to'g'risida savollar tug'dirdi. Xususan, investitsion resurslardan foydalanishni osonlashtirish orqali aholining kam ta'minlangan qatlamlarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishdan ijtimoiy maqsadni ko'zlashdan ko'ra, daromad olishga e'tibor qaratadigan mikromoliya institutlarining paydo bo'lishi ko'plab munozarali holatlar – o'z joniga qasd qilish, jamiyatlarda kambag' allining kuchayishi tufayli tanqid qilinmoqda. Bunday muammolar ko'payib borayotganligi sababli, turli olimlar nafaqat mikromoliyalash samaradorligini iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida o'lchaydigan, balki mikromoliyaviy faoliyat duch keladigan tarkibiy muammolarni ham ochib beradigan modellarni ishlab chiqdilar. Kambag' allikni qisqartirishda ana'anaviy mikromoliyalashtirish tizimida yuzaga kelayotgan muammolarga yuqori tranzaksiya xarajatlari, moliyaviy barqarorlikning yo'qligi, muhim ma'lumotlarning nosimmetrikligi, past darajadagi shaffoflik, korruption sxemalar orqali pul yuvilishi, nepatizm va yomon boshqaruv mikromoliyaning moliya bozoriga olib kelgan eng muhim tarkibiy muammolardan biri sifatida qayd etildi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi an'anaviy mikromoliyalashdan ko'ra, Kambag' allikka qarshi kurashda samaraliroq bo'ladigan tuzatuvchi kuch bo'lishi mumkin.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Qashshoqlik, kambag' allik muammosi har bir kishini tahlikaga soladigan iqtisodiy va ijtimoiy hodisa bo'lib bugungi kunda rivojanayotgan hamda rivojlangan mamlakatlar aholisining salmoqli qismini, hatto XXI asrda ham ta'qib qilmoqda. Iqtisodiyotda ushbu muammoning yechimini topish maqsadida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ko'plab ilmiy ishlarining dolzarb mavzusi bo'lib kelmoqda. Ko'plab tadqiqotchilar bu savolga javob topishga harakat qilishdi, ammo bugungi kunga qadar har bir mamlakat aholisining qashshoqlik darajasini baholashning yagona mezonlari va muammoni bartaraf etishning umumiyligini qabul qilingan yo'llari mavjud emas. Kambag' allik darajasining standart tahlili kunlik xarajat va daromad chegarasidan yuqori yoki pastda yashaydigan odamlar sonini baholash uchun ma'lum bir pul chegarasidan foydalaniladi. Juhon Banki tomonidan ishlab chiqilgan jahon mamlakatlarida qashshoqlikni o'lchash uchun uning chegarasi, ya'ni AQSH dollarda kuniga ma'lum miqdorda daromad sifatida belgilangan. Ayni vaqtida bu ko'rsatkich o'rtacha 1.90 dollarni tashkil qiladi. Yashash minimumining bunday tahlilini qashshoqlik darajasini baholashning eng keng tarqalgan usuli deb hisoblash mumkin. C.Kaskarilla va S.Guptalarning ishlarida kambag' allikni tahlil qilishning ushbu usulini amaliyotda qo'llash bilan tanishish mumkin<sup>1</sup>.

Kambag' allikka qarishi kurashishda an'anaviy mikromoliyani raqamli shaklga o'tkazish orqali zamonaviy tarixda ko'pchilik mamlakatlar aholisining asosiy qismi qashshoqlik sabablarini aniqlashga bag'ishlangan ilmiy ishlar bilan tanishib, kambag' allik chegarasidan olib chiqishga yo'naltirilgan mikromoliyalash mexanizmlarida zamonaviy raqamli texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani bilan bog'liq degan umumiyligini xulosaga kelishimiz mumkin<sup>2</sup>.

Koreya, Yaponiya va Singapur kabi ba'zi davlatlar ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali qashshoqlikdan qutulishga muvaffaq bo'ldi. Agar raqamli texnologiyalar kambag' al mamlakatlarga texnologik rivojlanishni kambag' allarning yashash ehtiyojlari bilan moslashtira oladigan tegishli milliy innovatsion tizim kabi tegishli institutlar bilan ta'minlansa, globallashuv, texnologiya va tadbirkorlik ilg'or o'zgarishlarning drayveri bo'lishi mumkin<sup>3</sup>.

Milliy iqtisodiyotimizni qaraydigan bo'lsak, tijorat banklarida uzoq muddatli kredit resurslarining yetishmasligi, kredit berish shartlarining og'irligi, yuqori ta'minot talablari, yuqori foizlar hamda mamlakatimiz kambag' al fuqarolariga kredit berish xavfi ortib borayotganini hisobga olgan holda, aholining eng kambag' al qatlami yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini, kichik va o'rta biznesni muqobil moliyalashtirishda kraufdanding moliyalashtirish modeli an'anaviy mikromoliya, hatto, bank kreditlariga o'z vaqtida zamonaviy muqobil yechim bo'lishi mumkin. Birinchi navbatda, kraufdanding modeli tushunchasi haqida tasavvurga ega bo'lishimiz lozim.

1 <https://data.worldbank.org/indicator/SI.POV.DDAY>

2 Cascarilla C. (2015). Bitcoin, Blockchain and the Future of Financial Transactions. CFA Institute Publications. Third Quarter 2015. Vol. 32. Iss. 3, pp. 1-7.

3 Sanjeev G. (2009). Effect of Remittances on Poverty and Financial Development in Sub-Saharan Africa. Journal of World Development. Vol. 37. Iss. 1. Pp. 104-115.



Kraufdanding (ingliz. "kraufdanding") – bu loyihalarni jamoaviy moliyalashtirish mexanizmi bo'lib, bunda yangi mahsulotni yaratish uchun pul uning oxirgi foydalanuvchilaridan biri bo'lib keladi. Standart bozor mexanizmlaridan farqli o'laroq, kraufdanding reklama, bozorni o'rganish, bozor tahlili va taxminlarga qo'shimcha mablag' sarflamasdan, 100% foydali loyiha yaratish imkonini beradi.

Kraufdanding – bu mikroinvestitsiyalar orqali loyihalarni moliyalashtirish uchun Internet orqali cheksiz odamlarni jalg qilish texnologiyasi bo'lib, ushbu amaliyotni bajarishda platformalar vositachi vazifasini bajaradi va startap loyihalarga shu yo'l bilan kapitalni jalg qilish imkoniyatini beradi<sup>4</sup>. M. Sriram tahliliga ko'ra, zamonaviy moliya bozorida kraufdanding rolini baholash bo'yicha informatsion maqola chop etdi. Uning ta'kidlashicha, katta ma'lumotlarni saqlash, olish imkonini beruvchi texnologiyada ortiqcha kapitalga ega bo'lganlar hamda qisqa muddatli sarmoyaga muhtoj bo'lganlar o'rtaqidagi vositachilik funksiyasi moliya bozori manzarasini butunlay o'zgartirishi mumkin. Bundan tashqari, agar blokcheynning to'liq salohiyati yaratilgan bo'lsa, individual investorlar kapitalga muhtoj bo'lgan. Jumladan, kambag'allar bilan bevosita bog'lanish mumkin edi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kraufdanding – kapitalni oshirish va startap loyihalarni moliyalashtirishning nisbatan yangi usuli bo'lib, biznesni kengaytirish yoki boshlash, biznes reja uchun kerakli mablag' ajratishning bir usuli hisoblanadi. Kraufdanding tadbirkorga pul to'plash imkonini berishi bilan bir vaqtning o'zida biznes atrofida shov-shuv yaratish imkoniyatini yaratadi. Qisqa qilib aytganda, kraufdanding kichik biznes uchun bank kreditlarining muqobil variantlaridan yana biri bo'lishi mumkin. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda ko'p turdag'i kraufdanding platformalari mavjud va bu jarayon foydalanuvchilarga qarzga kirmsandan biznesni moliyalashtirish imkonini beradi, shuning uchun u iqtisodiyotda moliyaviy resurslarga muhtoj bo'lgan ko'plab kichik biznes egalari uchun juda qulay usul sifatida amaliyotga joriy bo'lmoqda. Qaysi kraufdanding platformasini tanlashingizdan qat'iy nazar, kraufdandingni yaratish odatda, kompaniya yaratish, marketing, maqsadga erishish niyatida pul yig'ish kabi uch bosqichni o'z ichiga oladi. Kompaniya yaratish bosqichida moliyalashtirish obyekti biznes, mahsulot yoki xizmat haqida ma'lumotlar biznes reja shaklida to'liq shakllantiriladi va jalg qilinadigan pulning qayerga sarflanishi, nima uchun bunday miqdorga muhtojligini aniq asoslantiriladi. Umuman olganda, ishonchli va asoslangan biznes reja butun kraufdanding kompaniyasini yaratishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Kraufdanding kompaniyasini yaratish ilk qadam bo'lib, keyingi qadamda biznesni qo'llab-quvvatlashga qiziqadigan odamlarni jalg qilish uchun marketing rejasini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Ushbu bosqichda "investor" yoki "donor" kompaniyaga pul berishga qaror qiladi va taklif qilinayotgan mahsulot yoki xizmatning maqsadli auditoriyasiga aylantiriladi. Kraufdanding "investorlar" yoki "donorlar" yangi biznes g'oyani yoki loyihami moliyalashtirishga qaror qilishi uchun biznesingizni muhim jihatini ochib berish va ishontirishni talab qiladi. Bugungi kunda kraufdandingning 4 ta asosiy turi uchun ruxsat bor:

- fond kraufdanding;
- kraufdandingga asoslangan ehsonlar;
- kraufdandingga asoslangan mukofotlar;
- kraufdanding kreditlari.

**Fond kraufdanding** – bu birgalidagi kraufdanding yoki aksiyadorlik jamg'armasini pul evaziga o'z biznesingizdag'i ulushni sotasiz va kompaniya foydasining bir qismi investorlarga taqsimlanadi. Ushbu turdag'i kraufdanding ba'zi huquqiy qiyinchiliklar bilan bog'liq, ammo uni amalga oshirish mumkin. Bu turdag'i kraufdandingga ixtisoslashgan kraufdanding platformalarining ayrim misollari: AngelList: Angellistda pulni jalg qilish va Venture fondlari bilan bog'lanish uchun boshlang'ich profilni yaratish mumkin. CircleUp: ushbu platforma iste'molchilarga bevosita mahsulot sotadigan kompaniyalarga qaratilgan. Ishtirokchilar investorlarning hamkor bo'lishi va biznes jarayonlarida yordam olish yoki yordam berish mumkin. Fundable: ushbu platformada aksiyalar bo'yicha mablag' to'plashni tanlash mumkin. Fundable \$50 000 dan \$10 milliongacha bo'lgan kompaniyalar uchun aksiyalar bilan variantni taklif qiladi.

**Xayr-ehsonlar kraufdandingi** – bu turdag'i kraufdanding kompaniyangizga pul berib, buning o'rniiga hech narsa kutmasdan ishlaydi. Xayr-ehsonga asoslangan kraufdanding kambag'allikdan chiqish uchun qulay imkoniyatga ega bo'lsa-da, bu g'oya egalariga muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun eng qiyin bo'lishi mumkin. Sababi ushbu turdag'i kraufdandingda qatnashuvchi donorlar odatda, xayriya tashkilotlari bilan ishlashadi yoki ijtimoiy muammolarni hal qilishga mablag'larini yo'naltirishadi.

4 Leimeister, J. M. (2012): Crowdsourcing, Crowdfunding, Crowdvoting, Crowdcreation. 388 – bis 392. St.Gallen, CH: Zeitschrift für Controlling und Management.



**Mukofotga asoslangan kraufdanding** — mukofotga asoslangan kraufdanding bilan omonatchilar pul topish uchun muayyan mukofot olishadi. Kraufdandingning bu turi birja kraufdandingi deb ham ataladi va mukofot ko'pincha kompaniya uchun tikilgan pul miqdoriga bog'liq. Kompaniyalar omonatchilarga mablag' to'playdigan yangi mahsulotni yuborishlari mumkin.

**Kredit kraufdanding.** Kredit mablag'lar, foydalanuvchilararo kredit yoki bozor krediti sifatida ham tanilgan, agar shaxs yoki kompaniya bankka kreditiga emas, balki bir guruh odamlarga moliyaviy yordam so'rab murojaat qilsa, investitsiya qilingan pul belgilangan muddatlarda, foizlar bo'yicha qaytarilishi kerak. Kraufdanding biznes kreditini an'anaviy kreditlarga nisbatan past foizda taklif qilishi bilan qulaydir. Kredit kraufdanding platformaliga quydigilar kiradi:

**Prosper** — kichik biznesda foydalanish uchun shaxsiy kredit olish imkonini beradi. Bu kambag'al aholini biznes boshlashi uchun foydali bo'lishi mumkin, chunki bunda murojaatchini biznes layoqatiga emas, balki shaxsiy ijtimoiy ahvoliga bog'liq.

**Street Shares** — bu platforma biznesni moliyalashtirish uchun turli xil variantlarni taklif etadi va potensial investorlarga biznes obligatsiyalariga sarmoya kiritish imkoniyatini beradi. Biznesni moliyalashtirish orqali kambag'allikni qisqartirishda kraufdanding bilan bilan bir qatorda kraudinvestingdan ham keng foydalaniladi. Kraudinvesting istiqbolli loyihalarni moliya bilan ta'minlash uchun ko'plab kreditorlarning moliyaviy resurslaridan foydalanadi. Kraudinvestingda kapitalga talab va taklifni birgalikda tartibga solish internet platformalari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, tadbirkorlar kraudinvesting orqali qoplamoqchi bo'lgan kapitalga bo'lgan ehtiyojni aniqlaydi va potensial investorlarga biznes g'oya va rejalashtirilgan amalga oshirish haqida batafsil ma'lumot beradi<sup>5</sup>.

**Kraudinvesting** — bu ko'p sonli ishtirokchilar mikroinvestorlar tomonidan amalga oshirilgan loyihaga investitsiya. Bu loyihada faqat mikroinvestorlar ishtirok etadi, degani emas. Masalan, aksiyalarning 51 foizi loyiha egasiga, 2 foizi vechur fondiga tegishli, qolgan ulush esa sarmoya kiritishga tayyor bo'lgan mikroinvestorlarga sotiladi. Mikroinvestorlar kompaniya aksiyalarini yoki startap aktivlari ulushini olishlari mumkin. Ushbu holatda ta'sischi kredit berishi mumkin shuningdek, ta'sischi kraudinvestorlardan olingen pulni foizlar bilan qaytarishi kerak. Kraufdanding, pul bilan bog'liq jarayon, shuning uchun uning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Kraufdanding afzalliklariga ushbu platforma bozorni sinab ko'rishning ajoyib usuli bo'lishi mumkin. Biznes g'oyangiz bo'lsa-da, lekin bozorga kirib borishga ishonch bo'limasa, kraufdanding ushbu imkoniyatni beradi. Biroq biznes g'oya investorlar hamda sarmoyadirlarni jalb qilmasa, unda biznesning strategiyasini va g'oyasini o'zgartirish lozimligi to'g'risidagi muhim xulosalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Odatda, biznesda moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar kelib chiqadi ushbu vaziyatda, bozor moliyaviy mas'uliyatning katta qismini o'z bo'yniga oladi. Bundan tashqari kraufdanding moliyalashtirish mexanizmi orqali biznesni moliyalashtirish, aholining kam ta'minlangan qismini biznes boshlashi uchun vaqtadan yutish imkoniyatini oshirishi, kam foizlari yoki hayriya tarzidagi mablag'larni jalb qilish imkoniyatini oshirishi, mahsulotning bozorga chiqishini tezlashtirishi mumkin. Shunga qaramasdan, kraufdanding platformalarining ba'zi kamchiliklariga xususan, kraufdanding platformalaridan foydalanish to'lovlaring mavjudligi, investorlarni jalb qilish uchun marketing xizmatlarini professional tarzda tashkil qilish xarajatlarining ortib ketishi, platforma ishtirokchilari o'rtasida daromadni taqsimlashdagi qiyinchilik, intellektual mulk huquqlarini ta'minlashdagi qiyinchilik, ishtirokchilardan olingen katta hajmdagi ilmiy-teknikaviy hamda bozor axborotlarining sifati past binobarin, yakuniy mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida yuqoridaqilgan ilmiy qarashlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki:

*Birinchidan*, kraufdanding moliya bozoridan kam ta'minlangan fuqarolar mablag'larni jalb qilishning eng oddiy, eng tezkor shuningdek, eng arzon shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Internetga kirish imkoniyatiga ega mobil telefonlar hozirda jamiyatning eng kambag'al qatlamlari ham foydalanishi mumkinligini hisobga olsak, kraufdandingni rivojlantirish istiqbollari cheksiz imkoniyat sifatida ko'rindi.

*Ikkinchidan*, hozirgi vaqtda aholining kam ta'minlangan qismini raqamli moliyalashtirish jahon moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi ekanligi shuningdek, kraufdanding platformasining kengayishi mamlakatda kambag'allikni kamaytirishga yordam berishini hisobga olib, ushbu mexanizmni mamlakatimizda ham ishlab chiqish muhim omil deb, taklif qilishimiz kerak.

*Uchinchidan*, bu kam ta'minlangan aholi qatlaming muhim qismini kredit qarzlarini bo'yicha foiz stavkalari sezilarli darajada pasaytirish bilan bugungi kunda kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyati

5 Kortleben H., Vollmar B. 2012, "Crowdinvesting: An alternative in start-up financing" PFH Forschungspapiere/Research Papers Göttingen, Deutschland: Private University of Applied Sciences (PFH). No. 2012/06. S. 4



bilan shug'ullanish ishtiyoqini kraufdanding orqali kichik biznesga jalb qilish imkonini beradi. Natijada mamlakat iqtisodiyotida qo'shilgan qiymatning oshishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, ishsizlik darajasining pasa-yishiga, aholi daromadi va yashash sharoitlarining yaxshilanishiga, bandlik darajasi ortishi, milliy daromadning o'sishi, oxir oqibatda kambag'allik darajasi sonini kamaytirishga erishiladi.

*To'rtinchidan*, iqtisodiyotda kambag'allik darajasini kamaytirishda kraufdanding modelidan foydalanish imkoniyatlari kambag'allar sonini kamaytirishda amalda ishlayotgan ana'anaviy mikromoliyaviy faoliyat duch keladigan tarkibiy muammolar — yuqori tranzaksiya xarajatlari, moliyaviy barqarorlikning yo'qligi, muhim ma'lumotlarning nosimmetrikligi, past darajadagi shaffoflik, korupsion sxemalar orqali pul yuvilishi, nepatizm hamda yomon moliyaviy boshqaruv holatlariga barham berishi mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Cascarilla C. (2015). Bitcoin, Blockchain, and the Future of Financial Transactions. CFA Institute Publications. Third Quarter 2015. Vol. 32. Iss. 3.
2. Kortleben H., Vollmar B. 2012, "Crowdinvesting: An alternative in start-up financing" PFH Forschungspapiere/Research Papers Göttingen, Deutschland: Private University of Applied Sciences (PFH). No. 2012/06.
3. Leimeister, J. M. (2012): Crowdsourcing, Crowdfunding, Crowdvoting, Crowdcreation. 388 – bis 392. St.Gallen, CH: Zeitschrift für Controlling und Management.
4. Sriram M.S. (2005). Information asymmetry and trust: a framework for studying microfinance in India. Vikalpa, 30(4), 77-86.
5. Sanjeyev G. (2009). Effect of Remittances on Poverty and Financial Development in Sub-Saharan Africa. Journal of World Development. Vol. 37. Iss. Pp. 104-115.
6. <https://data.worldbank.org/indicator/SI.POV.DDAY>

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.